**Akbar Zamonov – tadqiqotchi.**

# Tarix fanidan test tuzish metodikasi

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ta’lim davlat siyosatining ustivor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. O‘zbekiston tarixini o‘rganish esa bu boradagi markaziy sohani egallaydi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartini ishlab chiqish uchun 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asos qilib olindi.

Eng yangi davr tarixini izchillikda o‘rganish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlarida davom ettiriladi.

O‘rta maxsus ta’lim bosqichida 1-kurs o‘quvchilari O‘zbekiston tarixining 1917 – 1991-yillardagi voqealarini o‘rgansa, 2 – 3-kursda 1991-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan Mustaqil O‘zbekiston tarixini o‘rganadilar.

Jahon tarixida esa 1918-yildan 1945-yilgacha bo‘lgan davr tarixi 1-kursda o‘qitilsa, 1945-yildan hozirgi kunga qadar jahonda sodir bo‘lgan voqealar tarixi 2-kursda o‘qitiladi.

O‘quvchilar tarixiy hodisalarning mazmunini bilishdan tashqari, tarixiy voqealarni bir-biri bilan taqqoslay olishlari, mustaqil fikr yuritib, ularga baho berishlari, voqealar mohiyatini tushuntira olishlari, yozma ifodalay olishlari zarur. Birinchi darajali voqealardan ikkinchi darajalisini farqlay olishlari, ularni ijodiy tahlil qilib, xulosalar chiqara olishlari zarur.

Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan abituryentlarga nisbatan qo‘yilayotgan talab bir qadar oshirilmoqda. Bunga o‘quvchilarning bilim saviyasida yildan yilga o‘sish kuzatilayotganligi asosiy sabablardan biridir. Davlat test markazi oliy o‘quv yurtlariga kirish testlarini Xalq ta’limi vazirligi va O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan

tavsiya etilgan darsliklar (so‘nggi yillarda chop etilgan) asosida tuzmoqda. Ushbu darsliklar oldingilariga qaraganda ancha soddalashtirilgan bo‘lsa-da, bu test savollarining ham soddalashib ketishiga olib kelmaydi. Buning sababi shundaki, DTM tomonidan testga qo‘yilgan talablar mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, savolda berilgan to‘rtta javobning bittasi to‘g‘ri bo‘lsa, noto‘g‘ri uchta alternativ javoblar ham to‘g‘ri javobga juda yaqin keladi. Ularning ichidan to‘g‘risini tanlash uchun o‘quvchidan kuchli bilimdan tashqari, zukkolik, mantiqiy to‘g‘ri fikrlash va test yechishdagi tajriba talab qilinadi.

Testologiya nazariyasi va amaliyotida shu narsa ma’lumki, test o‘quvchilarning bilimini baholashga xizmat qiladi va quyidagi uchta tamoyilga tayanadi:

1. *Testning ob’ektivligi* – ya’ni o‘quvchiga qo‘yiladigan baho uni qo‘yadigan shaxsga bog‘liq bo‘lmasligi shart.

2. *Ishonchlilik* – bu o‘quvchining bilimlarini o‘lchashning aniqlik darajasi yoki bir martalik pedagogik o‘lchash jarayonida olingan natijalarga qanchalik ishonish mumkinligini bildiradi.

3. *Validlik* – tuzilgan testning o‘quv dasturi mazmuniga mosligini bildiradi.

Test tuzishga qo‘yiladigan talablar. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini joriy nazorati hamda oraliq va yakuniy nazoratlari uchun sifatli test topshiriqlarini ishlab chiqishni bilishi kerak. Test sifatining yetarli darajasini ta’minlash uchun test topshiriqlarini tuzilishiga qo‘yiladigan qator talablarni hisobga olish va bajarish kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

- ✓ Test topshiriqlari berilgan struktura (kodifikator)ga ko‘ra ehtiyoj asosida tuzilishi va har bir test topshirig‘ining qiyinlik darajasi ko‘rsatilishi lozim.
- ✓ Har bir test topshirig‘i tegishli ta’lim turi bo‘yicha Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi asosida tuzilishi shart.
- ✓ Test topshirig‘i ilmiy asoslangan ma’lumotlar asosida tuzilishi zarur.

- ✓ Test topshirig‘i umumiy qabul qilingan terminlar asosida tuzilib, unda eskirgan, kam ishlatiladigan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, belgilar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar bo‘lmasligi kerak.
- ✓ Har bir test topshirig‘i biror-bir yagona maqsadni ko‘zda tutgan holda tuzilishi lozim.
- ✓ Test topshirig‘ining savoli aniq, lo‘nda, qisqa ifodalangan bo‘lishi, unda zaruriy ma’lumotlar keltirilishi, keraksiz ortiqcha ma’lumotlar ishlatilmasligi, shuningdek savol ikki xil tushunilmasligi kerak.
- ✓ Test topshirig‘i savolida to‘g‘ri javobni topishga yordam beruvchi so‘z va iboralar ishlatilmasligi lozim.
- ✓ Test topshirig‘ining to‘rtta javobi bo‘lib, ulardan faqat bittasi mutlaq to‘g‘ri bo‘lishi kerak.
- ✓ To‘g‘ri javoblar ham, noto‘g‘ri javoblar ham bitta mavzu doirasida bo‘lishi shart va ular shakl jihatidan ham bir-biriga yaqin bo‘lishi, to‘g‘ri javob shaklan ajralib turmasligi kerak.
- ✓ Testning muqobil javob varianlarida so‘zlarni keraksiz takrorlamaslik, shuningdek, tushunarli, aniq va qisqa bo‘lishi talab etiladi.
- ✓ Test topshirig‘ining muqobil javob variantlarini tuzishda to‘g‘ri javobni topishga yordam beradigan so‘z va iboralar ishlatilmasligi zarur.
- ✓ Test topshirig‘ining noto‘g‘ri javoblari asosli ravishda tanlanishi kerak.
- ✓ Test topshirig‘ining muqobil javoblari orasida «javoblarning barchasi to‘g‘ri», «javoblarning barchasi noto‘g‘ri», «to‘g‘ri javob yo‘q», «to‘g‘ri javob A va B», «B va D» kabi iboralar ishlatilmasligi lozim.
- ✓ Test topshiriqlari yozilgan faylning nomi namunaviy o‘quv rejaga muvofiq fanning to‘liq nomi bilan nomlanishi shart. Masalan: «Ikkinchi jahon urushidan keying yillarda Ispaniya» yoki «20-30-yillarda Qoraqalpog’iston» kabi. Faylni nomlashda qisqartmalar kiritish mumkin emas.
- ✓ Test topshiriqlarini kiritishda orfografik va punktuatsion xatoliklarga yo‘l qo‘ymasligiga e’tibor berilishi lozim.

Test savollari tarkibiga faqat tekshirilgan, obyektiv ma’lumotlar kiritiladi. O‘quvchilar uchun tuziladigan test topshiriqlari tarkibiga munozarali savollarni kiritish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, topshiriq mazmunini ilmiy bo‘lmagan, oddiy hayotiy tushunchalar yordamida yoritish tavsiya etilmaydi.

O‘quvchilar uchun tuziladigan test toshiriqlari qisqa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri savollar yordamida tuzilishi maqsadga muvofiq. 6-sinf uchun tuziladigan test topshirig‘i beso‘naqay, ko‘p so‘zli bo‘lishi kerak emas. Topshiriq sharti 7 – 8 so‘zdan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, to‘g‘ri javoblar tasodifiy tartibda joylashtirilishi, noto‘g‘ri javoblar haqiqatnamo bo‘lishi, javoblar variantlari (berk topshiriqlarda) bir xil uzunlikda bo‘lishi, test tarkibidagi so‘zlarning bir ma’noligi, aniqligi va tushunarliligiga e’tibor qaratish lozim. Topshiriq shartlari ifodasi va javoblar sinchkovlik bilan tahrir qilinishi shart.

Testlarning ma’lum qiyinchilik darajasi bo‘lishi talab etiladi, ya’ni test topshirig‘i o‘quvchidan axborotni oddiy eslab qolishdan ko‘proq narsalarni talab qilishi kerak. To‘g‘ri javobi o‘zidan-o‘zi ko‘rinib turgan test topshiriqlari testlar tarkibidan chiqarib tashlanishi maqsadga muvofiq.

Test topshirig‘i uchta qiyinlik darajasi asosida tuzilishi kerak:

1. Oson (I) – testdan o‘quvchining xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, uncha murakkab bo‘lmagan bir hodisa yoki qonuniyatni bilishni talab qiluvchi daraja;

2. O‘rtacha qiyin (II) – testdan o‘tuvchidan tahlil qila olishni, ikki-uch qoidani yoki qonuniyatni bir vaqtda qo‘llay bilish natijasida to‘g‘ri xulosaga kelishni talab qiluvchi daraja;

3. Qiyin (III) – jarayonni prognoz qilishda testdan o‘tuvchining to‘g‘ri javobni topish uchun zarur bo‘lgan hodisa va qonuniyatlarni tahlil qila olish qobiliyatini talab qiluvchi daraja.

*Birinchi daraja:* O‘quvchining faqat xotirasini va minimal bilim darajasini aniqlashga qaratilgan turli taqixiy sanalar, tarixiy atamalar va bitta tarixiy voqeani aniqlashni talab etadigan oddiy savoldan iborat bo‘ladi. Masalan:

Franko diktaturasi quyidagi qaysi davlatda o‘rnatilgan edi?

A) Angliyada B) Italiyada C) Ispaniyada D) Fransiyada

*Ikkinchi daraja:* O‘quvchining xotirasini tekshirish bilan birga, turli tarixiy davrlarda sodir bo‘lgan voqeani tahlil qilishni talab etadigan savollar. Bu kabi savollarni yechish davomida o‘quvchidan tarixiy-geografik bilimlar ham talab etiladi. Bunda bitta savolning o‘zida ikkita birinchi darajali ma’lumotlar so‘ralishi ham mumkin. Masalan:

Ikkinchi jahon urushidan oldin qaysi Yevropa davlatlarining mustaqil davlat sifatida mavjudligi barham topdi?

A) Chexoslovakiya va Polsha B) Avstriya va Chexoslovakiya

C) Bolgariya va ChexoslovakiyaD) Avstriya va Shveytsariya

*Uchinchi daraja:* Bir necha tarixiy voqealarni taqqoslash, qiyoslash, tahlil qilishni va o‘quvchidan jiddiy mantiqiy yondashuvni talab etadigan murakkab yoki kombinatsiyali savollar. Masalan:

1918 – 1920-yillarda Turkiston o‘lkasida nashr qilingan gazeta va jurnallarning hududi bilan to‘g‘ri toping.

1) «Ishtirokiyun», «Xalq dorilfununi»; 2) «Ishchilar qalqoni»; 3) «Xalq gazetasi»; 4) «Mehnatkashlar tovushi».

a) Toshkent; b) Namangan; c) Qo‘qon; d) Samarqand.

A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b

Test tuzayotganda test yechimining vaqt bo‘yicha reglamentlashga alohida ahamiyat qaratish lozim. Yechimi 2 daqiqadan ko‘p vaqt talab qiladigan test topshiriqlarini mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. O‘rtacha hisobda bitta topshiriqni bajarish uchun quyidagicha vaqt ajratiladi:

matematika – 65 soniya;

tillar – 32 soniya;

ijtimoiy va tabiiy fanlar – 41 soniya;

fakt, atamalarni bilish – 20 – 25 soniya;

chizma va sxemalarni tushunish – 90 soniya;

figuralar munosabatlari – 90 – 120 soniya.

Testlarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar. Har bir test odatda ko‘rsatmadan boshlanadi, masalan: «To‘g‘ri javob raqami atrofiga chizing» yoki «To‘g‘ri javob variantiga mos harf atrofiga chizing».

Test topshiriqlarining to‘rtta shaklga ajratiladi:

Test topshiriqlarini tuzishda o‘zlashtirishning reproduktiv darjasidagi testlar miqdorini ortib ketmasligiga e’tibor berish kerak. O‘quv materialini ijodiy darajalarda o‘zlashtirilganligini aniqlovchi-ochiq testlar, bir nechta javobli – yopiq test, muvofiqlikni aniqlovchi test shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga to‘xtalib o‘tamiz:

*Ochiq testlar.* Agar test topshirig‘i matnida uning tayanch so‘zlari yoki gap tushurib qoldirilgan bo‘lsa, bunday topshiriq ochiq, tugallanmagan test deb ataladi.

Bu shakldagi testlarda ta’lim oluvchilarning bitta, ikkita so‘zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo‘llanmada bayon etish kerak bo‘ladi va test blankasining bo‘sh joyida javob uchun zarur bo‘lgan joy qoldiriladi. Masalan:

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib qaysi davlat elchixonasi ochilgan?

J: _____

*Yopiq testlar.* Bu topshiriq sharti (fikr yoki savol) va bittasi to‘g‘ri, qolganlari esa noto‘g‘ri lekin haqiqatnamo javoblar majmuadan tarkib topadi. Bunday topshiriqlar berk deb atalishining sababi shundaki, o‘quvchi o‘z javobini ifoda etolmaydi, u javobni taklif etilgan majmuadan tanlab olishi kerak. Bunday testlar savol va bir necha javoblardan iborat bo‘ladi, bu javoblardan biri to‘g‘ri, qolganlari to‘g‘riga o‘xshash, biroq noto‘g‘ri bo‘ladi. Masalan:

Ozarbayjon umumxalq saylovlarida mamlakat prezidentligiga o‘zini «Otaturk askari» deb atagan shaxs kim edi?

A) Mutalibov B) Guseynov C) A.Elchibey D) Aliyev

*Muvofiqlikka oid testlar.* Bu testlarning mohiyati ko‘p sonli elementlarning boshqalariga muvofiqligini aniqlashga asoslangan. Bu topshiriqlar «muvofiqlik aniqlansin» degan so‘zdan iborat instruksiya asosida tuzilishi lozim. Masalan:

Quyidagi asarlarni nashr etilgan yili bilan to‘g‘ri ko‘rsating.

1) «Kuraj momo va uning farzandlari»; 2) «Qo‘ng‘iroq kimning motamini kuylayotir»; 3) «Olis kelajak haqida rivoyat»; 4) «Sartoris».

a) 1929-yil; b) 1948-yil; c) 1940-yil; d) 1938-yil.

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-dB) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

C) 1-d, 2-c, 3-a, 4-bD) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

*To‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlash bo‘yicha tuzilgan test.* Ma’lum jarayon operatsiyalari ketma-ketligini noto‘g‘ri sanab berish, aniq fikrdagi so‘zlarning to‘g‘ri tartibini buzish va hokazo yo‘llar bilan tuziladi. O‘quvchining vazifasiga harakatlarni tartibga solish, raqamlab chiqish kiradi. Masalan:

Fransiya prezidentlari davlat boshqargan yillariga qarab xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan qatorni aniqlang.

A) V.Oriol, J.Pompidu, R.Koti, F.Mitteran

B) J.Shirak, V.J.d’Esten, Sharl de Goll, J.Pampidu

C) Sharl de Goll, J.Pampidu, V.J.d’Esten, F.Mitteran

D) F.Mitteran, J.Pampidu, V.J.d’Esten, R.Puankare

Darslikni o‘zlashtirishda ko‘makchi bo‘ladigan ushbu qo‘llanmadan unumli foydalanishda Sizlarga muvaffaqiyat tilaymiz!